| Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati 830 Qobilova Aziza Tursunovna | |
| Intellektual madaniyatni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari 833 Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich | |
| Biologiya, kimyo va geografiya fanlarni o'qitishda iqtidorli o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish 837 Sultanova N. B., Toshpo'latova N. I., Azimov B. I. | |
| Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ 840 Суяров Хуршид Бахриддинович | |
| Oliy ta'limda sun'iy intellektni boshqarishda rivojlangan chet davlatlar tajribasidan foydalanish usullari 844 Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi | |
| Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari 852 Turapova Ra'no Barat qizi | |
| Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish 857 Jurayeva Muhayyo Nematillayevna | |
| Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari 861 Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A. | |
| Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish 865 Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich | |
| Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari 868 Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna | |
| The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives) 873 Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli | |
| Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish 877 Yuldasheva Gulsanam Arken qizi | |
| Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов 881 Бахриева Шахноза Давроновна | |
| Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики" 886 Равшанова Иноят Эркиновна | |
| Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge" 889 Тагаева Тамара Баходировна | |
| Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi 892 D. S. Zokirova | |
| O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari 895 Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich | |
| Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari 898 Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi | |
| Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish 901 Ortiqova Zulfiya Nurmuhammedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi | |
| Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari 905 Rustemov Muxamed Biysenbayevich | |
| The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture 908 Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna | |



| | |
|--|------|
| Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida | 912 |
| Salixova Muhayyo Shakirovna | |
| Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari | 915 |
| Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna | |
| Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi..... | 920 |
| U. M. Utbasarova | |
| Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha | 925 |
| Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi | |
| Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский..... | 928 |
| Алибекова Лайло Рахмановна | |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar | 931 |
| Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi | |
| Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs..... | 935 |
| Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna | |
| Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education..... | 938 |
| Raimova Nasiba Abdreimovna | |
| Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati..... | 942 |
| Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna | |
| Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari | 949 |
| Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li | |
| Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri | 952 |
| Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li | |
| Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана .. | 956 |
| Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович | |
| Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati | 961 |
| To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi | |
| Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners | 964 |
| Bahronova Maftuna Farhadovna | |
| Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar | 968 |
| Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li | |
| O'quvchilarning umumdaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari..... | 972 |
| Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich | |
| Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili | 975 |
| Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna | |
| Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongning shakllantirish..... | 980 |
| Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinovna | |
| Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish | 983 |
| Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi | |
| Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari | 986 |
| Abdushukurova Mushtariy | |
| Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari | 991 |
| Altibayeva Gulbaxor Majitovna | |
| Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts | 997 |
| Arabova Gulnuz Yuzboy qizi | |
| Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati..... | 1000 |
| Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna | |
| Hisor ekspeditsiyasi tarixi | 1004 |
| Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna | |
| Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari..... | 1007 |
| Boqiyev Sarvar Tangirqul o'g'li | |
| Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati | 1011 |
| Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich | |

| | | |
|-------------------------------|--|------|
| MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS | The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process..... | 1014 |
| | Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna | |
| | The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English..... | 1019 |
| | Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi | |
| | Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati..... | 1025 |
| | G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omaxon Rahmonberdi qizi | |
| | Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari..... | 1028 |
| | Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi | |
| | Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari..... | 1031 |
| | Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi | |
| | Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish..... | 1034 |
| | Iminova Z. B. | |
| | Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati..... | 1038 |
| | Inayatova Nargisa Nishonboyevna | |
| | O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish..... | 1044 |
| | Kalmuratovna Venera Sultanova | |
| | Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari..... | 1049 |
| | Kamola Abdullayeva | |
| | O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari..... | 1052 |
| | Karimov Orif Obloqul o'g'li | |
| | Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati..... | 1055 |
| | Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna | |
| | Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers..... | 1060 |
| | Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li | |
| | Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri..... | 1063 |
| | Makulov Shuxratjon Zokirovich | |
| | Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar..... | 1067 |
| | Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna | |
| | Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish..... | 1072 |
| | Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna | |
| | Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi..... | 1075 |
| | Mansurova Umida Mansur qizi | |
| | Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari..... | 1081 |
| | Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi | |
| | Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati..... | 1084 |
| | Murodov Nozimjon Olimjonovich | |
| | Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari..... | 1088 |
| | Nafasova Jamila Turg'un qizi | |
| | Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish..... | 1093 |
| | Najmiddinova Gulnoza Odilovna | |
| | Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi..... | 1097 |
| | Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi | |
| | Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli..... | 1101 |
| | O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li | |
| | Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari..... | 1104 |
| | Orifjonova Nazokat Maribjon qizi | |
| | Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari..... | 1108 |
| | Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi | |
| | Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari..... | 1112 |
| | Ostanov Askarjon Nuriddinovich | |



| | |
|---|------|
| “Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari | 1117 |
| <i>Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna</i> | |
| Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari | 1121 |
| <i>O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova</i> | |
| Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari .. | 1126 |
| <i>Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna</i> | |
| Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati . | 1131 |
| <i>Rahmatova Barnogul Karimjonovna</i> | |
| Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili... | 1138 |
| <i>Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi</i> | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi | 1143 |
| <i>Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi</i> | |
| Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari..... | 1146 |
| <i>Roziqova Malika Olimovna</i> | |
| Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish | 1149 |
| <i>Sattorov Boburbek Zokirovich</i> | |
| Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati .. | 1153 |
| <i>Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova</i> | |
| Ta’lim tizimini moliyalashtirish | 1156 |
| <i>T. Seydemetov</i> | |
| Integrating Sports Terminology Into English Teaching..... | 1161 |
| <i>Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna</i> | |
| Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish..... | 1165 |
| <i>Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li</i> | |
| The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence | 1173 |
| <i>Utambetova Arzayim</i> | |
| Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi | 1176 |
| <i>Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li</i> | |
| Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari | 1180 |
| <i>Xuramova Farangiz Uchqun qizi</i> | |
| Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati | 1185 |
| <i>Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna</i> | |
| Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis | 1189 |
| <i>Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova</i> | |
| Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi | 1195 |
| <i>Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li</i> | |
| Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях..... | 1200 |
| <i>Пак Светлана Викторовна</i> | |
| Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2 | 1204 |
| <i>Сагиндигов Алишер Алеуатдинович</i> | |
| Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе | 1208 |
| <i>Ширбачеева Гульчехра Шакировна</i> | |
| Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся | 1211 |
| <i>Яхшиева Мехринигор Шавкатовна</i> | |
| Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri | 1216 |
| <i>Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich</i> | |
| Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish | 1219 |
| <i>Bannayev Qosimjon Qodirjonovich</i> | |



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI ZARARLI ODATLARGA QARSHI KURASHGA TAYYORLASHNING AMALIY HOLATI VA TAHLILI

Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna
Farg'ona davlat universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirishga tayyorlashning amaldagi holati tahlil qilingan. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimida mazkur yo'nalishning rivojlanish darajasi o'rganilib, talabalar kompetensiyalari, mavjud muammolar va rivojlantirish imkoniyatlari aniqlangan. So'rovnoma, kuzatish, suhbat va tahlil natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot davomida talabalar bilim darajasi, amaliy kompetensiyalari, o'quv dasturlarining mazmuni hamda profilaktik faoliyatga tayyorgarlik ko'rsatkichlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: zararli odatlar, profilaktika, pedagogik kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, sog'lom turmush madaniyati, pedagogik tayyorgarlik.

Abstract: This article analyzes the current state of preparing future teachers to develop students' immunity against harmful habits. The study examines the level of development of this direction in the teacher training system, identifies students' competencies, existing challenges, and opportunities for improvement. Practical recommendations were developed based on questionnaires, observations, interviews, and analytical methods. The research explored students' knowledge level, practical competencies, curriculum content, and readiness for preventive activities.

Key words: harmful habits, prevention, pedagogical competence, future teacher, healthy lifestyle culture, pedagogical training.

Аннотация: В статье анализируется современное состояние подготовки будущих учителей к формированию иммунитета к вредным привычкам у учащихся. Изучен уровень развития данного направления в системе подготовки педагогических кадров, определены компетенции студентов, существующие проблемы и возможности совершенствования. На основе анкетирования, наблюдения, интервьюирования и аналитических методов разработаны практические рекомендации. В ходе исследования были изучены уровень знаний, практические компетенции студентов, содержание учебных программ и степень готовности к профилактической деятельности.

Ключевые слова: вредные привычки, профилактика, педагогическая компетентность, будущий учитель, культура здорового образа жизни, педагогическая подготовка.

KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri – yosh avlodda sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda ularni zararli odatlardan himoya qilishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, ularning sog'lom hayotni targ'ib qilishga oid bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, YUNESKOning "Ta'lim 2030" dasturi hamda "Sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi maktablar" modeli asosida pedagoglarni tayyorlash orqali o'quvchilarda zararli odatlarga qarshi psixologik, ijtimoiy va madaniy immunitetni shakllantirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, sog'lom muhitni ta'minlash va profilaktik ishlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Dunyo miqyosida bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarda zararli odatlarga qarshi immunitetini shakllantirishga yo'naltirilgan tayyorgarligi sog'lom avlodni tarbiyalash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. AQSh, Yaponiya va Finlandiya kabi rivojlangan davlatlarda maktab o'quvchilarining psixologik chidamliligi, tanqidiy fikrlashi hamda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim siyosatining ajralmas qismiga aylangan. Bu borada pedagogik ta'lim dasturlarini yangilash, amaliy mashg'ulotlar va treninglar orqali bo'lajak o'qituvchilarning zararli odatlarning oldini olishga doir kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar,

tarbiyaviy metodlar va samarali muloqotga asoslangan yondashuvlar asosida tayyorlash ularning profilaktik va tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Bu esa ta'limning barcha bosqichlarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, zararli odatlarning oldini olish va ijtimoiy-psixologik barqarorlikni ta'minlash jarayonining uzviyligini ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar orasida tamaki, alkogol, giyohvandlik, internetga qaramlik, agressiv axborot oqimiga ergashish kabi zararli odatlar keng tarqalmoqda. Bu esa maktab ta'lim tizimida o'quvchilarga sog'lom turmush madaniyatini singdirish, zararli odatlarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish vazifasini dolzarblashtirmoqda. Bu borada rossiyalik olimlarning ilmiy izlanishlarini ko'rsak, V. V. Nedbayning "O'smirlarning media madaniyatini shakllantirish" mavzusidagi dissertasion izlanishlarida umumta'lim maktabi ta'lim jarayonida o'smirlarning media madaniyatini samarali shakllantirishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarni nazariy asoslash va eksperimental sinovdan o'tkazish tadqiqot maqsadi sifatida tanlanganligini ko'rish mumkin. Uning fikricha, o'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos shart-sharoitlarini yaratish va shakllantirish imkoniyatlarini alohida ishlab chiqish zarur.

E. V. Muryukina "O'rta maktab o'quvchilarining media madaniyatini shakllantirish: kinomatbuot materiali bo'yicha" mavzusini o'rganib, nazariya va amaliyotni tahlil qilish asosida o'rta maktab o'quvchilarining media madaniyatni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlari va kinomatbuot materiallariga kiritilgan mediata'lim salohiyati o'rtasidagi obyektiv ziddiyatni aniqlagan. Uning muammosi quyidagicha shakllantiriladi: o'rta maktab o'quvchilarining media madaniyatini shakllantirish uchun qanday pedagogik shartlar mavjudligi va tadqiqotning maqsadi ushbu muammoni hal qilishga yo'naltirilgani ta'kidlanadi.

M. V. Kuzmina "O'quv videomateriallarini yaratish jarayonida talabalarning media madaniyatini shakllantirish" nomli dissertasiya mavzusida talabalarning media kompetensiyasi talaba bilan qo'shma media loyihalar uchun yetarli bo'lishi kerakligini, talabalar ijodiyotining individual ko'rinishlarini hisobga olgan holda, ularning manfaatlariga tabaqalashtirilgan yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Talabalarni ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq turli tanlov va festivallarga jalb qilish muhim rol o'ynashi qayd etiladi.

Kuzatuvlar natijasidan ma'lumki, o'quvchilarni atrofdan sun'iy ravishda ajratish, ularning ongini ortiqcha himoyalash yoki muayyan qolipga solish noto'g'ri jarayondir. Aslida yosh avlodni fikran teranlikka, aqlan yetuklikka va ilmiy-tahliliy yondashuvga o'rgatish zarur. Mukammal egallangan bilimgina zararli axborotlarga nisbatan himoyalaniq immunitetini shakllantiradi. O'quvchilarda turli feyk ma'lumotlar yoki dezinformasiyalarga nisbatan antiimmunitet paydo bo'ladi.

Bugungi kunda axborotga oid bir qator nazariyalar yaratilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- axborotning hissiy nazariyasi (P. Simonov);
- entropiyani inkor etish (Brillyuen);
- kommunikasiya va aloqa jarayonida bartaraf etiladigan noaniqlik (Shennon);
- tashqi dunyodan olingan axborot va unga moslashish jarayonida mazmunning belgilanishi (Viner);
- tanlovning ehtimolligi (Yaglom);
- xilma-xillikning kuzatilishi (Eshbi).

Bu kabi jarayon ichida axborot vositalarida tarqatilayotgan axborot mazmunini tahliliy qabul qila olmaydigan, tanqidiy fikrlash saviyasiga ega bo'lmagan 7–9-sinflardagi o'quvchi-yoshlar mavjud. Bu holat esa 7–9-sinf o'quvchi-yoshlari orasida shunchaki qabul qiluvchi va undagi buzg'unchi g'oya hamda qarashlarga ergashuvchi shaxslarning shakllanishiga olib kelmoqda.

Ushbu jarayonda o'qituvchi yetakchi subyekt bo'lib, uning mazkur yo'nalishdagi kasbiy tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ammo pedagog kadrlar tayyorlash amaliyotida bo'lajak o'qituvchilarni bu borada maxsus tayyorlash tizimi yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatilmoqda. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida tamaki, spirtli ichimlik, veyp, internet va o'yin qaramligi, destruktiv onlayn kontentga ergashish kabi zararli odatlar ko'payib bormoqda. Ushbu muammolarning oldini olishda maktab o'qituvchisining roli muhim ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchi bilim beruvchi, o'quvchilarda to'g'ri hayotiy pozitsiya, sog'lom turmush madaniyati va salbiy ta'sirlarga qarshi immunitetni shakllantiruvchi asosiy pedagog hisoblanadi. Shunga qaramay, hozirgi kunda bo'lajak o'qituvchilarni bu yo'nalishda tayyorlash tizimi yetarli darajada amaliy va metodik jihatdan ta'minlanmagan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak o'qituvchilarning zararli odatlarga qarshi kurashish bo'yicha tayyorgarlik darajasini aniqlash, mavjud pedagogik sharoitlarni o'rganish va mavjud muammolarni tahlil etish maqsad qilib olindi. Mazkur bosqichda nazariy asoslarda ilgari surilgan g'oyalar amaliy jihatdan sinovdan o'tkazilib, respondentlar orasida kuzatuv, so'rovnomma va suhbat metodlari orqali ma'lumotlar yig'ildi.

Tadqiqot ishi oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan 2–3-bosqich talabalari orasida olib borildi. Tadqiqotda jami 458 nafar respondent ishtirok etdi. Tadqiqot jarayonida ularning zararli odatlarga (chekish, ichkilikbozlik, internetga qaramlik, dangasalik, tajovuzkorlik, befarqlik va boshqalar) nisbatan munosabatlari, bu boradagi bilim, ko'nikma va qadriyatlar darajasi tahlil qilindi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning aksariyati zararli odatlar to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lsalar-da, ularning psixologik, ijtimoiy va sog'liq uchun oqibatlarini chuqur tahlil qila olish ko'nikmalari yetarli emas. Talabalarning 62 foizi zararli odatlarning turlari haqida bilsalar-da, ularni oldini olishning pedagogik yo'llarini to'liq bilmasliklarini bildirganlar. Shu bilan birga, 25 foiz respondentlar o'zini-o'zi boshqarish, stress holatlarida to'g'ri qaror qabul qilish kabi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarining pastligini tan olgan.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan suhbatlar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning aksariyati maktab muhitida o'quvchilarda zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirish bo'yicha metodik yondashuvlarni chuqur o'rganmagan. Bu holat o'quv jarayonida mazkur masalaga oid maxsus mavzularning yetarli darajada yoritilmaganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, o'qituvchi tayyorlash tizimida zararli odatlarga qarshi kurash bo'yicha profilaktik va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning integratsion yondashuvi yetarli emasligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, bu yo'nalishda nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki interfaol metodlar, psixologik treninglar, ijtimoiy loyihalar orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantirish zarur.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashda quyidagi kamchiliklar mavjud: pedagogik jarayonda zararli odatlar muammosiga kompleks yondashuvning yetishmasligi; amaliy mashg'ulotlar va treninglar tizimining sustligi; psixologik-pedagogik diagnostika vositalarining cheklanganligi; tarbiyaviy ishlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish darajasining pastligi.

Mazkur holatlarni tahlil qilish natijasida bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini kompetensiyaga yo'naltirilgan asosda qayta qurish zarurligi aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bu ma'lumotlar pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida mazkur yo'nalishga tizimli yondashuv yetishmasligini ko'rsatadi.

1. Talabalarning amaliy tayyorgarlik darajasi

| Ko'nikma | Ijobiy javob (%) |
|---|------------------|
| Zararli odatlarning oqibatlarini nazariy biladi | 62% |
| Profilaktik mashg'ulot ssenariysini tuza oladi | 38% |
| Internet va o'yin qaramligiga qarshi usullarni biladi | 32% |
| Trening yoki davra suhbatini o'tkaza oladi | 30% |
| Maxsus fan o'tilishi kerak deb hisoblaydi | 81% |

Xulosa: Talabalar nazariy ma'lumotga ega, ammo amaliy profilaktik faoliyatga tayyor emas.

2. O'quv dasturlari va ta'lim mazmunining holati

Tahlillarga ko'ra:

- pedagogika va psixologiya fanlarida zararli odatlarning profilaktikasiga oid mavzular umumiy nazariy xarakterda berilgan;
- maxsus amaliy modul, trening yoki alohida fan sifatida o'qitilmaydi;
- amaliyot davrida talabalar sog'lom turmushga oid tarbiyaviy mashg'ulotlar yoki profilaktik loyihalar ishlab chiqishga jalb qilinmaydi;
- dasturlarda "Zararli odatlar profilaktikasi" bo'yicha alohida fan yoki modul mavjud emas;

- amaliy mashg'ulotlar, treninglar, keyslar yetarli emas;
 - talabalar pedagogik amaliyotda profilaktik tadbirlar o'tkazishga jalb qilinmaydi;
 - zamonaviy tahdidlar (veyp, kibermakon qaramligi, onlayn submadaniyatlar) o'quv mazmunida aks etmagan.
- Amaliy holat tahlili asosida quyidagi muammolar ajratildi:

| Muammolar | Tavsifi |
|---|--|
| Metodik tayyorgarlik yetishmasligi | Talabalar profilaktika mashg'ulotlarini loyihalashni bilmaydi |
| Amaliy mashg'ulotlar kamligi | Nazariya amaliyot bilan mustahkamlanmagan |
| Zamonaviy tahdidlar bo'yicha bilim past | Veyp, kibermakonda qaramlik, destruktiv kontentga qarshi yondashuvlar yo'q |
| Trening dasturlari | Bo'lajak o'qituvchilar uchun maxsus trening modullari mavjud emas |

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:

- bo'lajak o'qituvchilarning 70% maktabda profilaktik ishlarni olib borishga o'zini yetarli tayyor deb hisoblamaydi;
- 81% talabalar "maxsus metodik kurs yoki trening joriy etish zarur" deb hisoblaydi;
- 68% amaliyot davrida sog'lom turmushga oid loyihalarda ishtirok etmagan.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlash jarayoni hozirgi kunda yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Talabalarning ko'pchiligi zararli odatlar mazmuni va ularning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini haqida umumiy tasavvurga ega bo'lsalar-da, ularni oldini olish, profilaktika ishlarini tashkil etish hamda tarbiyaviy faoliyatda samarali metodlardan foydalanish borasida amaliy tayyorgarliklari past darajada ekani aniqlandi.

Shuningdek, o'quv jarayonida zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirishga oid mavzularning yetarli darajada yoritilmaganligi, trening va interfaol mashg'ulotlar tizimining sustligi, profilaktik faoliyatni tashkil etish bo'yicha metodik qo'llanmalar va resurslarning kamligi aniqlangan.

Mazkur holatni bartaraf etish uchun:

- pedagogik ta'lim jarayonida zararli odatlarga qarshi kurash bo'yicha maxsus modullarni joriy etish;
- bo'lajak o'qituvchilarni psixologik-pedagogik tayyorlashda trening va amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish;
- sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyatlarini yo'lga qo'yish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish lozimligi tavsifiya etiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatdi. Bu esa ta'lim jarayonida shaxsiy rivojlanish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ma'naviy yetuklikni ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, amaliy holat shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlash tizimi hozircha fragmentar (uzuq-yuluq) ko'rinishda bo'lib, uni takomillashtirish uchun quyidagi choralar taklif etiladi:

- oliy ta'limda maxsus modul: "Zararli odatlarga qarshi pedagogik profilaktika" nomli amaliy modul kiritish;
- metodik ta'minot yaratish: keyslar, treninglar, tarbiyaviy mashg'ulot ssenariyalarini ishlab chiqish;
- amaliyot jarayonini boyitish: talabalarni maktablarda sog'lom turmushga oid loyihalarda ishtirok ettirish;
- zamonaviy tahdidlarni o'qitish: internet qaramligi, veyp, onlayn destruktiv oqimlar bo'yicha alohida treninglar joriy etish;
- monitoring tizimini yo'lga qo'yish: talabalarning bu yo'nalishdagi tayyorgarligini muntazam baholash.

Shuningdek:

"Zararli odatlarga qarshi pedagogik profilaktika" fanini majburiy modul sifatida kiritish;



- talabalar uchun trening, keys, rolli o'yinlar, real vaziyatli mashg'ulotlarni joriy etish;
- pedagogik amaliyot davrida profilaktik tadbirlar o'tkazishni majburiy baholash mezonini sifatida belgilash;
- veyp, internet va o'yin qaramligi, onlayn tahdidlar bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish;
- talabalarning bu yo'nalishdagi tayyorgarligini monitoring va diagnostika orqali baholab borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. Freeman.
2. Botvin, G. J., & Griffin, K. W. (2015). Prevention science and drug abuse. *Journal of School Health*, 85(8), 500–505.
3. Sussman, S., & Ames, S. (2017). *Drug abuse: Prevention and cessation*. Cambridge University Press.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). *Yoshlar tarbiyasiga oid hujjatlar to'plami*. Toshkent.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.